

AZIZLAR! NARGIZA ERKABOYEVADAN YANGILIK!!!!

Ustoz Nargiza Erkaboyeva YuoTube kanalida **majburiy fanlar bosqichidagi abituriyentlar uchun mutlaqo bepul videodarslar** kanali tashkil etdilar. Endi siz ***hech qanday kurslarga, repetitorga bormasdan*** ona tilini ustoz **Nargiza Erkaboyeva**

bilan **mutlaqo bepul** o`rganish imkoniyatiga egasiz.

Videodarslar tushunarli va oson o`tilgan. Batafsil ma`lumotni **@nargizaerkaboyeva** rasmiy kanalidan olishingiz mumkin.

Telegramdagi kanal: **@nargizaerkaboyeva**

YuoTube dagi kanal: **Erkaboyeva akademiyasi**

Sayt: **erkaboyeva.uz**

FE'LNING MA'NOVIY GURUHLARI

1. Qanday so`zlarga fe'l deyiladi? **J: Shaxs yoki narsalarning harakat, holatini ifodalab, nima qilmoq?, nima bo'lmoq? so`roqlariga javob bo`ladigan so`zlarga fe'l deyiladi**

2. Fe'llar qaysi jihatiga ko`ra harakat va holat fe'llariga bo`linadi? **J: Nimani atab kelishiga ko`ra**

3. Qanday fe'llar harakat fe'llari hisoblanadi? **J: Shaxs va narsalarning jismoniy harakati natijasida ro`y bergan harakatni bildiruvchi fe'llar**

4. Harakat fe'llariga misol keltiring. **J: Yozmoq, o`qimoq, chizmoq, yugurmoq, gapirmoq, qurmoq, buzmoq**

5. Qanday fe'llar holat fe'llari hisoblanadi? **J: Shaxslarning ichki kechinmalari va narsalarning bir holatdan ikkinchi holatga o`tish jarayonini bildiruvchi fe'llar**

6. Holat fe'llariga misol keltiring. **J: Kulmoq, yig`lamoq, isimoq, sovimoq, pishmoq, jimirlamoq, porlamoq, achchiqlanmoq**

7. Fe'llarni harakat va holat fe'llariga ajratishda fe'l asosiga qaraladimi? **J: Fe'l asosiga emas, fe'lning ma'nosiga qaraladi, masalan: pishmoq – holat fe'li, pishirmoq – harakat fe'li; ochmoq – harakat fe'li, ochilmoq – holat fe'li**

8. Yumush fe'llari qaysilar? **J: Ishladi, mehnat qildi, ter to`kdi, xizmat qildi, yuvdi, tozaladi, supurdi, artdi kabilar**

9. Tafakkur fe'llariga misol keltiring. **J: O`qidi, kashf qildi, ixtiro qildi, o`yladi, fikrladi kabilar**

10. Sezgi fellarini toping. **J: Sezdi, his qildi, tuydi kabilar**

11. Ruhiy holat fe'llari nimani ifodalaydi va ularga misol keltiring. **J: Ruhiy holat fe'llari shaxslarning ruhiyatida sodir bo`ladigan holatlarni ifodalaydi,**

misollar: kuldi, yig`ladi, qayg`urdi, iztirob chekdi, achchiqlandi, xursand bo`ldi, quvondi kabilar

12. Nutq fe'llariga misol keltiring. **J: Gapirdi, so`zladi, pichirladi, ming`irladi, vaysadi, javradi, bidirladi, baqirdi, bayon etdi, nutq irod etdi kabilar**

13. Ishora fe'llari qaysilar? **J: Ko`zini qisdi, labini burdi, imo qildi kabilar**

14. Jismoniy holat fe'llari nimani ifodalaydi va ularga misol keltiring. **J: Jismoniy holat fe'llari shaxslarning jismida bo`ladigan holatlarni ifodalaydi, misollar: kasal bo`ldi, isitma qildi, tuzaldi, sog`aydi, kuchaydi, zo`raydi, charchadi, toliqdi kabilar**

15. Tabiiy holat fe'llari nimani ifodalaydi va ularga misol keltiring. **J: Tabiiy holat fe'llari shaxs va narsalarning tabiiy holatini ifodalaydi, misollar: isidi, muzladi, eridi, sovidi, pishdi, yotdi, uxladi kabilar**

16. Ko`rish fe'llarini toping. **J: Ko`rdi, boqdi, termuldi, nazar soldi, qaradi, ko`z tashladi kabilar.**

17. O`zaro ma`nodosh bo`lgan fe'llar bir-biridan qanday farqlanadi? **J: Harakat-holatning kuchli-kuchsizligiga ko`ra, uslubiy xoslanishiga ko`ra, ijobiy va salbiy bahoga ega bo`lishiga ko`ra**

18. *Jilmaymoq, kulimsiramoq, kulmoq* fe'llari bir-biridan qanday farqlanadi? **J: Harakat-holatning kuchli-kuchsizligiga ko`ra**

19. *Kulmoq – tirjaymoq; so`zlamoq – ming`irlamoq, to`ng`illamoq* fe'llari qanday farqlanadi? **J: Ijobiy va salbiy bahoga ega bo`lishiga ko`ra**

20. *Kulmoq – tabassum qilmoq* fe'llari qanday farqlanadi? **J: Uslubiy xoslanishiga ko`ra**

21. “*Sakson yil lovullab so`nmagan o`tman*” misralari qaysi ijodkorga tegishli va gapda qanday fe'llar ishtirok etgan? **J: Zulfiyaga tegishli, holat fe'llar qatnashgan**

22. So`zlashuv uslubiga xoslangan fe'llarni toping. **J: Xitlamoq, so`ppaymoq, valdiramoq, g`imirlamoq, gap otmoq, masxaralamoq**

23. Badiiy uslubga xoslangan fe'llarni toping. **J: Xushnud bo`lmoq, sayr aylamoq, izhor qilmoq, dardiga darmon bo`lmoq, mahliyo bo`lmoq**

24. Rasmiy uslub uchun xoslangan fe'llarni toping. **J: Ozod etilmoq, qaror qabul qilmoq, tasdiqlamoq, inkor qilmoq**